



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HAY’ATI YIG‘ILISHI BAYONI

8«yanvar»2025 yil.

1-son

- Raislik qiluvchi:** **Sh.Xidoyatov** – Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri
- Qatnashganlar:** Vazirlar Mahkamasining mas’ul xodimi
- Markaziy studiyada:** Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining Hay’ati a’zolari, vazir o‘rinbosarlari, vazir maslahatchilari, Apparat rahbari, tarkibiy bo‘linmalar boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari *(ro‘yxat bo‘yicha)*
- Hududiy studiyalarda:** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tizimidagi hududiy tashkilotlar rahbarlari *(ro‘yxat bo‘yicha)*

KUN TARTIBI:

I. Nazoratdagi hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomini mustahkamlash hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2024-yil 20-dekabrda 142-son bayonida belgilangan masalalar to‘g‘risida.

II. Murojaatlar bilan ishlash va navbatchi dispetcherlik xizmati faoliyati to‘g‘risida.

III. Toshkent shahar Chilonzor tumani Prokuraturasining “Jinoyatning sabablarini va ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to‘g‘risida” 2024-yil 4-dekabrda 15/67p-24-son taqdimnomasining ijrosi to‘g‘risida.

IV. Vazirlik faoliyatiga oid boshqa masalalar.

(Xidoyatov, Adilov, Alimatov, Jurayeva, Imomov, ... Xidoyatov)

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, shuningdek, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, vazirlikka yuklangan vazifa va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, shuningdek, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash, nazoratdagi hujjatlar va murojaatlar bilan ishlashni yanada kuchaytirish maqsadida, Hay’at yig‘ilishi

QAROR QILADI:

I. Nazoratdagi hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomini mustahkamlash hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2024-yil 20-dekabrdagi 142-son bayonida belgilangan masalalar to'g'risida:

1. Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2024-yil 20-dekabrdagi 142-son bayoni so'zsiz ijro uchun qabul qilinsin.

Mazkur bayon bilan:

kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan mas'ul rahbarlarga qat'iy choralar ko'rilishi hamda bajarilmagan har bir topshiriqqa yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat va jiddiy masala sifatida qaralishi lozimligini o'zlarining hay'at (kengash) yig'ilishlarida tanqidiy muhokama qilinishini ta'minlashga;

topshiriqlarni bajarish bo'yicha nazorat va hisobdorlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-son Farmoni va 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-son qarori bilan belgilangan tartibga qat'iy amal qilgan holda tashkil etishga;

ishlarni kunbay ishlab chiqilgan kalendar grafiklari asosida tashkil etib, topshiriqlar ijrosini barvaqt hamda sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkil etishga;

har haftaning dushanba kuni o'tkaziladigan ijro intizomi bo'yicha muhokamalarda har bir topshiriq bo'yicha mas'ul ijrochilar hisobotini tanqidiy eshitib, muhokama qilgan holda ularning ijrosini o'z vaqtida ta'minlash choralari ko'rishga;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi bayonlari loyihalarini moliyaviy, iqtisodiy va huquqiy ekspertizadan o'tkazish jarayonida har bir loyihada nazarda tutilgan topshiriqlarni bajarish uchun amalda zarur resurs va imkoniyatlar mavjudligi hamda ijro muddatlari to'g'ri belgilanishiga **alohida e'tibor qaratilsin.**

2. Quyidagilar:

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijro holati Rahbariyat huzurida **har hafta** (dushanba, chorshanba, juma kunlari) muhokama qilinib, tegishli choralar belgilab borilayotganligi;

ijro nazorati tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlarni o'z vaqtida, to'liq hajmda va sifatli bajarmagan mas'ullarga nisbatan **qat'iy va ta'sirchan choralar ko'rish belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.**

3. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim)lari va tasarrufiy tashkilotlari tomonidan "app.ijro.uz" tizimi orqali kelib tushgan ijro muddati 2024-yil etib belgilangan nazoratdagi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qaror, farmoyishlari va topshiriqlarining ijrosi **to'liq ta'minlanganligi inobatga olinsin.**

4. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlariga "edo.ijro.uz" tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlardan 2025-

yil 3-yanvar holatiga **283 tasining** (Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari – 18 ta, Hukumat komissiyasi topshiriqlari – 25 ta, Vazirlik va idoralar tomonidan (edo.ijro.uz) kelib tushgan topshiriqlar – 240 ta) ijro muddati buzilganligi **qattiq ko‘rsatib o‘tilsin.**

5. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo‘lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari:

“app.ijro.uz” tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlarni o‘z vaqtida, to‘liq hajmda va sifatli bajarish bo‘yicha **qat’iy nazorat o‘rnatsin;**

yanvar oyida bajarilishi lozim bo‘lgan (asosiy ijrochi – 42 ta, hamijrochi – 47) **89 ta** (A.Usmonov – 17 ta, R.Xabibullayev – 8 ta, A.Azizov – 8 ta, G.Raximov – 5 ta, O.Muminov – 3 ta, Sh.Odilov – 3 ta, S.Elamonov – 3 ta, I.To‘rayev – 2 ta, A.Alimuxamedov – 2 ta, G.Otaboyeva – 2 ta, J.Fayziyev – 2 ta, K.Abduvahhobov – 2 ta, I.Mamanov – 1 ta, B.Karimov – 1 ta, A.Mirzakarimov – 1 ta, E.Ermatov – 1 ta, I.Djurayev – 11 ta, M.Mustapov – 6 ta, S.Eshquvvatov – 6 ta, M.Zagrutdinov – 5 ta);

fevral oyida bajarilishi lozim bo‘lgan (asosiy ijrochi – 50 ta, hamijrochi – 25) **75 ta** (B.Karimov – 18 ta, A.Usmonov – 11 ta, A.Azizov – 6 ta, R.Xabibullayev – 4 ta, Sh.Odilov – 4 ta, A.Xolmuminov – 3 ta, G.Raximov – 2 ta, A.Alimuxamedov – 2 ta, A.Mirzakarimov – 2 ta, R.Rasulov – 2 ta, B.Maxmudov – 2 ta, K.Abduvahhobov – 1 ta, I.To‘rayev – 1 ta, O.Muminov – 1 ta, S.Eshquvvatov – 11 ta, M.Mustapov – 2 ta, A.Qo‘ldashev – 1 ta, M.Zagrutdinov – 1 ta, M.Inoyatov – 1 ta) topshiriqlar ijrosi ta‘minlanishiga **shaxsan alohida e‘tibor qaratsin;**

mazkur topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, nazoratdagi hujjatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, bu borada xodimlar mas‘uliyatini kuchaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha **keskin va ta’sirchan choralar ko‘rsin;**

amalga oshirilgan ishlar natijasi hamda ko‘rilgan choralar yuzasidan belgilangan muddatlarda ijro nazorati tizimiga **axborot kiritisin.**

6. Vazir o‘rinbosarlari, Ijro nazorati bo‘limi (**V.Mamedov**) tegishli boshqarma (bo‘lim) va tizim tashkilotlari bilan birgalikda **vazir o‘rinbosarlarining Ijro.gov.uz tizimida ijro muddati 2025-yilning yanvar oyiga belgilangan nazoratdagi topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tasdiqlangan “Yo‘l xarita”lari** ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlasin hamda shu asosda **tizimli ishlarni tashkil etsin.**

7. Apparat rahbari **V.Imomov**, Ijro nazorati bo‘limi (**V.Mamedov**) nazoratdagi topshiriqlar ijrosi ta‘minlanishi, aks holda topshiriqlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarmagan boshqarma (bo‘lim)lar va tizim tashkilotlari rahbar va xodimlarining **oylik reyting ko‘rsatkichlariga (KPI) nisbatan jarima qo‘llash bo‘yicha Rahbariyatga taklif kiritib borsin.**

II. Murojaatlar bilan ishlash va navbatchi dispetcherlik xizmati faoliyati to‘g‘risida:

8. Murojaatlar bilan ishlash va dispetcherlik xizmati bo'limi boshlig'i **B.Maxmudov**ning jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar bilan ishlash to'g'risidagi **hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

9. 2024-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan **jami 33 395 ta** murojaatlar kelib tushib, shundan **204 ta** murojaatlarning ijro muddati buzilganligi **qattiq ko'rsatib o'tilsin** (*Ko'p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish boshqarmasi – 2 ta* (142868-s/23, 173835-s/24), *Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi – 1 ta* (639304/24,)), *Toshkent shahar Uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi va uning tuman bo'limlarida – 201 ta*).

10. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi, Toshkent shahar Uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi va uning tuman bo'limlari boshliqlari:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash masalalarida **kamchilik va qoloqliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo'llasin;**

intizomiy jazo chorasini qo'llanilganligi to'g'risidagi buyruq nusxasini ma'lumot tariqasida vazirlik rahbariyatiga **taqdim qilsin;**

uch kun muddatda yuqorida qayd etilgan murojaatlarda ko'tarilgan masalalarni chuqur o'rgangan holda, ularning yechimi yuzasidan murojaat egasiga aniq va to'liq javob berilishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan **vazirlikka axborot kiritilishini** ta'minlasin.

11. Tizim tashkilotlari va hududiy bosh boshqarmalar rahbarlari fuqarolar qabuli uchun alohida xonalar tashkil etish va xonalarni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan peshlavhalar va zarur anjomlar bilan ta'minlash;

sohalardagi tizimli muammolarni o'rganish va ularning yechimini topish, murojaatlarni o'z vaqtida puxta va sifatli ko'rib chiqish, ayniqsa, takroriy murojaatlar asossiz ko'payishining oldini olishga **jiddiy e'tibor qaratsin.**

12. Vazir o'rinbosarlari, Murojaatlar bilan ishlash va dispetcherlik xizmati bo'limi (**B.Maxmudov**):

ijro muddati buzilgan murojaatlar va ularda ko'tarilgan masalalarning **har hafta** bo'lib o'tadigan selektor yig'ilishida batafsil **muhokama qilib borilishini ta'minlasin;**

kelgusida murojaatlar bilan ishlashning natijadorligini oshirish bo'yicha aniq **chora-tadbirlar belgilasin;**

joylardagi shaxsiy va sayyor qabullarni tasdiqlangan jadvallar asosida o'tkazib, aholi bilan samarali muloqot tashkil etsin va bunda birinchi navbatda, aholi tomonidan ko'tarilgan hududiy va sohaviy muammoli masalalarni qonuniy hal etish bo'yicha **barcha amaliy choralarni ko'rsin;**

murojaatlar bilan ishlash tartib-qoidalariga amal qilmagan, ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqmagan, fuqarolarni qabul qilishda kamchilik va

qoloqliklarga yo‘l qo‘ygan mas‘ullarga nisbatan tegishli choralar qo‘llash bo‘yicha **rahbariyatga axborot va takliflar kiritsin.**

13. Tizim tashkilotlari va hududiy bosh boshqarmalar rahbarlari yuqorida qayd etilgan **muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish choralari yuzasidan kengaytirilgan tarzda muhokama o‘tkazsin** hamda uning natijasi bo‘yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan **5 kun muddatda** vazirlikka axborot kiritsin.

14. Apparat rahbari **V.Imomov**, Murojaatlar bilan ishlash va dispetcherlik xizmati bo‘limi (**B.Maxmudov**) **jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlarning** ijrosi ta‘minlanishi, aks holda murojaatlarning **ijrosini** o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlamagan boshqarma (bo‘lim)lar va tizim tashkilotlari rahbar va xodimlarining **oylik reyting ko‘rsatkichlariga (KPI) nisbatan jarima qo‘llash bo‘yicha Rahbariyatga taklif kiritib borsin.**

III. Vazirlik faoliyatiga oid boshqa masalalar to‘g‘risida:

15. Vazirlikda davlat tili ustuvorligini ta‘minlash yuzasidan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son va “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to‘liq o‘tishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi 61-son va “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 28-oktabrdagi 662-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 30-avgustdagi bayoni ijrosini to‘liq, sifatli va o‘z muddatida ta‘minlash maqsadida, vazirning **2023-yil 8-sentabrdagi 281-son buyrug‘i** tasdiqlanib, unda rasmiy sayt, ichki axborot va hujjat aylanish elektron tizimlari, bino ichidagi va atrofidagi barcha yozuvlar davlat tilida, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida bo‘lishi zarurligi belgilanligi;

vazirning **2024-yil 6-iyuldagi 156-son buyrug‘i** bilan vazirlik hududiy va tizim tashkilotlarida davlat tili va ma‘naviyat masalasiga mas‘ul xodimlar tayinlanib, mehnat qonunchiligiga ko‘ra, ularga ustama belgilanishi ta‘minlanganligi;

yuqoridagi hujjatlar ijrosi yuzasidan vazirlik markaziy apparatida buyruq loyihalari va yuqori turuvchi tashkilotlarga (*Prezident Administratsiyasi, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi, Hisob Palatasi, Oliy Sud, Bosh prokuratura va boshqa shu kabi markaziy idoralarga*) yuboriladigan xat va hujjatlarni vazirning ma‘naviyat va davlat tili bo‘yicha maslahatchisi bilan kelishish amaliyotiga amal qilinayotganligi, ya‘ni, markaziy apparatning boshqarma va bo‘limlari hamda tuzilmadagi tashkilotlar tomonidan tayyorlangan xat va hujjat loyihalari **edo.uz elektron tizimi** orqali vazir maslahatchisiga kelishishga kiritilib borilayotganligi, jumladan 2024-yilda jami **2 179 ta** (*yil yakuni holatiga*) buyruq, xat va hujjat loyihalari kelishib berilganligi;

davlat tilida ish yuritish sifatini yanada oshirish maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti hamda hududiy oliy ta'lim muassasalari huzuridagi **Malaka oshirish** markazlarida tashkil etilayotgan o'quv kurslarida xodimlarning malakasini bosqichma-bosqich oshirib borish yuzasidan yillik Reja-jadval tasdiqlanib (2023-yil 30-noyabrda 01/5-05/2373-son xat bilan markazga taqdim qilingan), uning ijrosi yuzasidan 2024-yilda vazirlik markaziy apparatining **14 nafar** xodimi malakasi oshirilganligi va tegishli sertifikatga ega bo'lganligi;

Kompetensiyani rivojlantirish institutuda yo'lga qo'yilgan vazirlik tizimi va soha mutaxassislarining har uch yilda bir marotaba qisqa muddatli kurslarda malaka oshirishida **Davlat nazorati organlarida idoraviy hujjatlar bilan ishlash** moduli tashkil etilib, unda vazir maslahatchisi U.Bayzakova tomonidan sohaviy va tizim xodimlariga nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazib kelinayotganligi;

Vazirlar Mahkamasining "Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2021-yil 4-fevraldagi 52-son qarorida test sinovlari Bilim va malakalarni baholash agentligi (*Oldingi Davlat test markazi*) tomonidan o'tkazilishi belgilanganligi yuzasidan 2024-yil boshidan markaziy apparatga ishga yangi qabul qilingan **22 nafar xodimning** tegishli ma'lumotlari **org.uzbmb.uz** platformasiga kiritilib, imtihonda ishtiroki ta'minlanganligi **inobatga olinsin**.

16. Vazirlik tizimidagi hududiy va tizim tashkilotlari rahbarlari:

a) tashkilotdagi barcha ish yuritish hujjatlari lotin yozuvidagi o'zbek alifbosida bo'lishiga (2021-yil 10-fevraldagi VM-61-son qaror) jiddiy e'tibor qaratsin. Bunda, davlat tiliga mas'ul xodim tomonidan buyruq, xat va hujjat loyihalari kelishib berilishi ta'minlansin;

b) 2024-yil 21-noyabrdagi 01/2-23/146-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2025-yilda davlat tilida ish yuritish asoslari bo'yicha malaka oshiradigan xodimlarining ro'yxatiga muvofiq (2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmon), xodimlarning belgilangan muddatda malaka oshirishini ta'minlasin;

d) ishga yangi qabul qilingan **xodimlarning** (2021-yil 4-fevraldagi VM-52-son qaror) tegishli ma'lumotlari **org.uzbmb.uz** platformasiga kiritilib, imtihonda ishtiroki ta'minlanishi hamda Bilim va malakalarni baholash agentligining tegishli sertifikatga ega bo'lishiga jiddiy e'tibor qaratsin.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 31-dekabrda 03-2523-xdfu/10-son topshirig'i so'zsiz ijro uchun qabul qilinsin.

Topshiriqda quyidagilar:

So'nggi paytlarda Davlat Rahbariga kiritilayotgan hujjatlarni (*xat, ma'lumotnoma axborot va boshqalar*) tayyorlash, rasmiylashtirish va taqdim etishda bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi;

taqdim etilayotgan hujjatlarda **imzolangan sanalarni qayd etmaslik**, ma'lumotlarni vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari tomonidan imzolamasdan yoki ularning xabarisiz (kelishmasdan) taqdim etish, berilgan topshiriqlarning asosini ko'rsatmaslik holatlari hamda orfografik va grammatik xatoliklar kuzatilayotganligi;

shu bilan birga hujjatlarni Administratsiya kanselyariyasida qayd etmasdan, to'g'ridan-to'g'ri tarkibiy bo'linmalarga yuborish yoki xizmat doirasida foydalanish uchun (XDFU) hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim etishda belgilangan tartib-qoidalarga rioya etmaslik holatlari ko'plab uchrayotganligi;

yuqorida qayd etilgan salbiy holatlarning oldini olish maqsadida barcha darajadagi rahbarlar shaxsan ogohlantirilishi va kelgusida hujjatlarni rasmiylashtirish va taqdim etishda amaldagi tartiblarga (*Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son qarori va 2006-yil 6-dekabrdagi 17-1-1 yo'riqnomasi*) qat'iy rioya qilinishi talab etilganligi **inobatga olinsin**.

18. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga yuboriladigan xat-hujjatlar faqat birinchi rahbar (vazir) tomonidan (*ayrim hollarda uning birinchi o'rinbosari tomonidan*) imzolanishi shartligi **qat'iy belgilab qo'yilsin**.

Bunda, hujjatlar sifatli tayyorlanishi, hujjat yozishga asos bo'lgan topshiriq raqami aniq ko'rsatib o'tilishi, mazkur talablarga javob bermaydigan xat-hujjatlar esa qaytarib yuborilishi to'g'risida **ogohlantirilsin**.

Shuningdek, xizmat doirasida foydalanish uchun (XDFU) grifli hujjatlarni tuzishda Yo'riqnoma talablariga (*Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi 140-son qarori va 2006-yil 6-dekabrdagi 17-1-1 yo'riqnomasi*) **qat'iy rioya qilinsin**.

Ushbu badda belgilangan topshiriqqa amal qilmagan rahbar va xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi belgilab qo'yilsin.

19. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari va tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari **bir hafta muddatda** o'zlarining faoliyati yo'nalishlari bo'yicha **2025-yilda amalga oshiriladigan islohotlar** bo'yicha rejalar va takliflar tayyorlab (*taqdimot materiallari ko'rinishida*) Rahbar (vazir) huzurida taqdimot qilish uchun tayyorlansin.

Apparat rahbari **V.Imomov**, Yig'ma axborot-tahlil bo'limi (**K.Abduvahhobov**) yuqorida qayd etilgan **2025-yilda amalga oshiriladigan islohotlar bo'yicha** rejalar va takliflarni boshqarma (bo'lim)lar va tasarrufiy tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida va sifatli tayyorlanishi yuzasidan nazorat o'rnatish.

20. Vazirlik markaziy apparati boshqarma (bo'lim) boshliqlari, tasarrufiy va hududiy tashkilotlar rahbarlariga:

Vazirning "Vazirlik muassisligidagi davriy bosma nashrlar faoliyatini rivojlantirish va 2025-yilgi obunasini tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi 218-son buyrug'i **ijrosi ta'minlanmayotganligi**;

vazirlik muassisligidagi davriy bosma nashrlarning 2025-yil obunasiga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi **ko'rsatib o'tilsin.**

21. Tasarrufdagi va hududiy tashkilotlar rahbarlari:

Vazirning "Vazirlik muassisligidagi davriy bosma nashrlar faoliyatini rivojlantirish va 2025-yilgi obunasini tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi 218-son buyrug'i **ijrosini to'liq ta'minlasin;**

vazirlik muassisligidagi davriy bosma nashrlarga obuna bo'yicha reja ko'rsatkichlariga **alohida e'tibor qaratsin.**

Bunda, reja ko'rsatkichlarini to'liq bajargan mas'ullarni tahririyatlar tomonidan rag'batlantirish belgilanganligi **inobatga olinsin.**

Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlikka **axborot kiritilsin.**

22. "O'zbekiston bunyodkori" nashriyoti (D.Djalalov) va "O'zbekiston arxitekturasini va qurilishi" jurnali tahririyati (N.Madaminova) gazeta va jurnalning konsepsiyasini tubdan qayta ko'rib chiqib, takomillashtirish, nashrlar saviyasini yangi darajaga ko'tarish choralari ko'rsin. Bunda:

jurnalist va xodimlar malakasini oshirish, ularda zamonaviy va kreativ fikrlash ko'nikmalarini kuchaytirish bo'yicha zaruriy ishlarni amalga oshirsin;

keng o'quvchilar ommasi talablari va qiziqishlarini inobatga olgan holda gazeta va jurnal dizayni zamonaviy shaklda bo'lishi, ulardagi maqola va materiallarda sohadagi keng islohotlar hamda ilg'or va xalqaro standartlarga mos yangi tajribalarning keng yoritilishini ta'minlasin.

23. Ijro nazorati bo'limi (V.Mamedov) mazkur yig'ilish bayoni ijrosi **nazoratini olib borgan holda** natijasi bo'yicha Rahbariyatga axborot kiritib borsin.

24. Ushbu yig'ilish bayonining ijrosi nazorati vazir o'rinbosarlari D.Adilov, T.Alimatov, O.Jurayeva zimmasiga yuklansin.

Vazir



Sh.Xidoyatov